

## **O'ZBEK VA KOREYS TILI SHEVALARINING O'XSHASH VA FARQLI JIHATLARI.**

*Toshturdiyeva Shoxista*

*O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek tili shevalarining ayrim xususiyatlari koreys tili shevalarining ayrim xususiyatlari bilan taqqoslanib, bu tilni o'rganish o'zbek o'quvchilariga yanada soddaroq va aniqroq bo'lishi uchun shevalar jihatidan yondashilgan.

**Kalit so'zlar:** sheva, adabiy til, leksik o'zgarish, fonetik o'zgarish, grammatik o'zgarish.

**Annotation:** In this article , some characteristics of Uzbek language dialects are compared with some characteristics of Korean language dialects, and the study of this language is approached in terms of dialects in order to make it easier and more accurate for Uzbek students.

**Key words:** dialect, literary language, lexical change, phonetic change, grammatical change.

### **KIRISH**

Har bir tilda sheva mavjud. Lekin eng e'tiborni tortadigani ikkita bir-biriga yaqin bo'lmagan ikki tilning adabiy tili va shevalaridagi o'xshash jihatlaridir. Biz shu jarayonni o'zbek va koreys tili doirasida qisman ko'rib chiqamiz. Sheva bu muayyan tilning o'ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlariga ega bo'lgan eng kichik qismidir.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

**Fonetik jihatdan adabiy til bilan farqlanishi: Tovushlar almashishi.** 전라도 shevasida “오” harfi “아” harfi kabi talaffuz qilinadi. Masalan: “놈” adabiy tilda - “남” shevada, “포리” adabiy tilda - “파리” shevada. Shuningdek Seul shevasi adabiy tilga

asos qilib olinganiga qaramasdan “오” harfi “우” harfi kabi talaffuz qilinadi.

Masalan”가도 – 가두”. O’zbek tilining shevalarida ham bunday holat kuzatiladi.

Masalan Buxoro tomonlarda “o” harfi o’rniga “a” harfi talaffuz qilish holatlari ko’p: qora (adabiy tilda) – qara (shevada), tog’a (adabiy tilda) – tag’o (shevada). Shuningdek

O’zbekistonning ko’pgina hududlari, xususan Toshkent, Buxoro, Qashqadaryo viloyatlarida “men, sen” o’rnida “man, san” ni ishlatishadi. **Tovush ortishi.** Seulda

“갈다” so’zida “ㅌ” harfidan keyin “으” qo’shib talaffuz qilish holati uchraydi: 갈다 –

가트다, 같고 – 가트고. O’zbekistonning Samarqand, Urgut hududlarida tovush ortishi

holati bilan bog’liq shevalar ko’p uchraydi: “bank – banka, stakan – istakan” kabi.

**Tovush tushishi.** 경상도 shevasida “ㅃ” harfi “ㅍ” harfi kabi qisqa talaffuz qilinadi:

씨름 – 시름. Koreys tilida so’zning tovushlarini tushirib talaffuz qilinadigan shevalar

deyarli yo’q. Asosan grammatik jihatdan qisqarish holatlari ko’p. Bunga teskari ravishda

o’zbek tilida bunaqa holatlar juda ham ko’p bo’lib, deyarli har bir shevada uchraydi hisob:

ovqat – aqot, aytmoq – etmoq. Yuqorida ko’rib turganimizdek, koreys tili shevasida

tovush almashishi va tovush ortishi holati o’zbek tiliga nisbatan ko’p uchraydi. Shu jihat

orqali ham koreyslar o’zbeklardan farqli ravishda ko’proq so’zlarni cho’zib talaffuz

qilishga moyilligini bilib oldingiz.

**Leksik jihatdan adabiy tildan farqlanishi.** Inson har qanday holatda ham oson yo’lini qidiradi. Ya’ni qanaqa ma’nodagi oson yo’lni? Talaffuz qilganda hech qanaqa

qiyinchilikka duch kelmaslik, kam so’zlar orqali fikrini tez ifodalay olish kabi. Balki

shuning uchun ham shevalar paydo bo’lgandir. Leksik jihatdan adabiy tildan farqlanish

degani adabiy tildagi bir so’z shevalarda umuman yoki qisman boshqacha ishlatilishidir.

Bu farq o’sha hududda yashab kelgan aholining tub etnik tarkibi va hatto ba’zan o’sha

hududda yashaydigan aholining madaniy hayoti bilan ham bog’liq bo’ladi. Masalan: 공-

: 공밥(공밥) 강-: 강밥(강밥) 맨-: 맨조밥(강조밥) 메-: 메조이(메조) 올-: 올베(올벼)

찰-: 찰지장(찰기장) 늦-: 늦감재(늦감자) 들-: 들깨(들깨) 참-: 참드륵(참두릅) 풋-: 풋고치(풋고추) 막-: 막국시(막국수) 통-: 통김치(통김치) 생-: 생밤(생밤) 햇-: 햇사과(햇사과). Koreys tilshunoslari bo'lgan Go Young Geun va Koo Bon Kvanlar yuqoridagi misollardagidek bu old qo'shimchalar(prefiks)ning hammasi ko'pincha don yoki chorva nomini bildiruvchi so'zlar bilan birikib, bu an'anaviy qishloq xo'jaligi hayoti bilan bog'liq holat bo'lishligini aytishadi. Koreys tilidagi shevaga xos leksik birliklar adabiy tildan qisman yoki butunlay farq qiladi. Masalan Kyongsangdo shevasida "qo'shni" so'zi "이웃" bo'lsa, adabiy tilda aslida "이웃" bo'ladi. Bu qisman leksik o'zgarishdir. O'zbek tiliga keladigan bo'lsak, Buxoro hududlarida "yostiq" so'zi "yostuq" kabi, "yashirmoq" so'zi "yoshirmoq" kabi ishlatiladi. Koreys tilining Cheju shevasida "shirin kartoshka" “지실” bo'lsa, asl adabiy tilda esa “감자”. Yoki “qum” so'zi bu shevada “모실” bo'lsa, asl adabiy tilda esa “모래”. Bu esa butunlay leksik o'zgarishdir. O'zbek tilida esa Qashqadaryo hududlarida “shippak” so'zini “shatak” deyishadi. Yoki Xorazm hududlarida “aka” so'zi “og'a” deb ishlatiladi. Bu shevalar esa adabiy tilda tubdan o'zgaradi. Yana bir jihatni aytib o'tish kerakki, koreys tili adabiy tilda ishlatiladigan '찾아가다, 찾아오다' so'zlarining ma'nosi o'zbek tilining shevasidagina ishlatiladigan "qidirmoq, qidirib bormoq, qidirib kelmoq" ma'nosi bilan bir xil. Bu so'z o'zbek adabiy tilidagi "tashrif buyurmoq, ko'rgani bormoq" ma'nosiga teng. Ya'ni koreys tili adabiy tilida '저는 할머니 댁에 찾아가다' deb ishlatiladigan gap o'zbek shevasida ham “Men buvimnikiga qidirib bordim” deb aytiladi. Lekin xuddi shu gap o'zbek adabiy tilida "Men buvimning uyiga ko'rgani bordim” deb yoziladi va ishlatiladi. Yoki koreys tili adabiy tilida “vataniga bormoq” ma'nosida '고향에 내려가다/고향에 내려오다' iborasi ishlatilib aslida bu yerdagi '내려가다' "tushmoq" deb tarjima qilinadi. Boshqa viloyatlar Seul shahridan geografik jihatdan pastda joylashganligi uchun shu jumla

qo'llaniladi. O'zbek tilining adabiy tilida emas-u shevasida shu jumla ishlatiladi, lekin “vatan” so'zi bilan birga emas: “Men qishloqqa tushib kelay; Bozorga tushib keldim”.

**Grammatik jihatdan adabiy tildan farqlanishi.** Grammatik jihatdan degani og'zaki shevada gapning orasida qandaydir grammatik qo'shimchalarning tushib qolishi yoki ortishi yoki almashishi tushuniladi. Koreyaning deyarli barcha shevasida ya'ni og'zaki nutqda “을/를” (ni tushum kelishigi) qo'shimchasi tushib qoladi: “저는 책 읽어요”. O'zbek tilida ham xuddi shunday: “Men kitob o'qiyman”. Koreys tilida bosh kelishik qo'shimchasi og'zaki nuqtda qisqaradi: 저는 – 전, 너는 – 넌. Chollado shevasida “겠” kelasi zamon qo'shimchasi o'rniga “것” ishlatiladi, o'zbek tilining ayrim shevalarida “da” o'rin-payt kelishigi o'rniga “ga” jo'nalish kelishigi ishlatiladi.

## XULOSA

Yuqorida shevalarga xos ayrim jihatlarni ko'rib chiqdik. Bu yo'llar orqali o'zbek o'quvchilariga koreys tilini osonroq o'rgatish mumkin. Chunki har qanday tilni o'rganayotganiyda u tilda ona tilingizga xos xususiyatni ko'rsangiz, bu boshqa to'plangan ma'lumotlarga qaraganda esda tezroq va uzoq vaqt saqlanishi tajribalarda sinalgan. Shuningdek, o'zbek o'quvchilarining deyarli hammasi koreys tilini u yerda o'qish va ishlash maqsadida o'rganishadi. U yerdagi mahalliy aholi bilan tez chiqishib ketishda shevalarni ona yurtida o'rganish o'rni katta.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Hozirgi O'zbek adabiy tili” H. Jamolxonov. Toshkent “Talqin”, 2005. 14-15 betlar.
2. “O'zbek dialektologiyasi” S. Ashirboyev. Toshkent, 2016. 5-6 betlar.
3. “O'zbek tilining imlo lug'ati” Sh. Rahmatullayev, A. Hojiyev. Tosheknt, 2008.
4. “외국인을 위한 한국어 문법” 1-qism. Korea. Communication Books, 2005.
5. “외국어로서의 한국어 교육” 호텔아카데미하우스, 2010. 24-33betlar.
6. “서울대 한국어” 2B 서울대학교 언어교육원. 2014. 164 bet.
7. <https://namu.wiki/w/%EC%84%9C%EB%82%A8%20%EB%B0%A9%EC%96%B8>